



To'liq ESHBEKOV,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Filologiya fanlari doktori, professor N.Jabborov taqrizi asosida

BADIIY ASARDA MUALLIF VA QAHRAMON RUHI UYG'UNLIGI «O'TKAN KUNLAR» VA «YALDO KECHASI» RO'MONLARI MISOLIDA

Annotasiya

Maqolada buyuk adib Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» ro'moniga ilova tariqasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton yozgan «Yaldo kechasi» tarixiy ro'moni hamda "Moziydan bir sahifa", videofilmi misolida badiiy asarda muallif va qahramon ruhi uyg'unligi, mazkur asarlar tili, uslubi, asar qahramonlari obrazlarining o'ziga xos jihatlari qiyosiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Adib, «O'tkan kunlar», «Yaldo kechasi» tarixiy ro'mon, "Moziydan bir sahifa", qatag'on, muallif, qahramon, ruh, uyg'unlik, jadid, Vatan, millat.

THE HARMONY OF THE SPIRIT OF THE AUTHOR AND THE HERO IN A LITERARY WORK ON THE EXAMPLE OF THE NOVELS "BYGONE DAYS" AND "YALDO KECHASI"

Annotation

In the article, by the example of the historical novel "Yaldo kechasi" written by the People's Writer of Uzbekistan Khairiddin Sultan as an addition to the novel "Bygone Days" of the great writer Abdulla Qodiriy, as well as the video film "A Page from the Past", the harmony of the spirit of the author and the hero in a literary work, the language and style of these works, and the specific features of the images of the characters of the works are comparatively analyzed.

Keywords: Writer, "Bygone Days", "Yalda Night", historical novel, "A Page from the Past", repression, author, hero, spirit, harmony, Jadid, Motherland, nation.

ГАРМОНИЯ ДУХА АВТОРА И ГЕРОЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ НА ПРИМЕРЕ РОМАНОВ «МИНУВШИЕ ДНИ» И «ЯЛДО КЕЧАСИ»

Аннотация

В статье на примере исторического романа «Ялдо кечаси», написанного народным писателем Узбекистана Хайридином Султоном как приложение к роману великого писателя Абдуллы Кадыри «Минувшие дни», а также видеофильма «Страница из прошлого», проводится сравнительный анализ гармонии духа автора и героя в художественном произведении, языка и стиля этих произведений, а также своеобразных особенностей образов персонажей произведений.

Ключевые слова: Писатель, «Минувшие дни», «Ночь Ялды», исторический роман, «Страница из прошлого», репрессии, автор, герой, дух, гармония, джадид, Родина, нация.

Kirish. Adabiy jamoatchilik o'rtasida mashhur yozuvchi-shoirilar bilan bugungi davr ijodkorlari faoliyatini qiyosiy tahlil etib gapirish o'ziga xos taomilga aylangan. Talabalik davrimiz (1980-yillar)da bir jaydari gap hammamizga xush yoqardi: "Abdulla Qahhor – o'zbekning Chexovi", "Muxtor Xudoyqulov – o'zbekning Krilovi", "Abdulla Oripov va Erkin Vohidov – bugunning Navoiylari"... Pirmuqul Qodirov, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimovlarni ham "o'zbekning Chingiz Aytmatovi" deydiganlarga hech kim e'tiroz bildirmasdi. Huzur qilib aytiladigan bu o'xshatmalarni hatto adabiyotshunos olimlar ham inkor etmas edi. Gap shundaki, kitobxonlik avjiga chiqqan o'sha kezlarda adabiyot ixlosmandlari atoqli adiblar va shoirlarning asarlarini qiyosiy tahlil qilib o'qirdilar!

1991-yili televizorda "Moziydan bir sahifa" videofilmini tomosha qilgach, "Xayriddin Sulton – bugunning Qodiriyi ekan!" desam, kursdosh do'stlarim birdek chapak chalib yuborgandilar.

Bir rejessyor do'stimning gapi undan ham zo'r bo'lgandi: "Agar Abdulla Qodiriyning to hibsga olingunga qadar kechgan ibratli hayoti va ijodiy faoliyati haqida ssenariy yozilsa-yu uni film sifatida suratga olish menga topshirilsa, bosh qahramon roliga Xayriddin akani taklif etgan bo'lardim. O'shanda film tabiiydek chiqardi. Nazarimda, ikki adib Abdulla Qodiriy bilan Xayriddin Sultonning ruhiy olamida qanchalik

uyg'unlik bo'lsa, ularning chehralarida ham ajib o'xshashlikni ko'raman".

Rejessyor do'stimning bu gapi yana bir mavzuga «turtki» berdi va u aytgandek, 1936-1937-yillarda Abdulla Qodiriyning boshida qora bulutlar aylanguniga qadar kechgan ibratli hayoti va ijodiy faoliyati haqida o'ylay boshladim. U ham o'smir bola bo'lgan, maktabda o'qigan, Toshkent shahridagi Eshonguzar mahallasida kimlarningdir koriga yarab, mehrini qozongan, bir nechta gazeta va jurnallarga asos solishda faollik ko'rsatgan, o'ndan ortiq taxalluslari bilan tahririyatlarda samarali faoliyat ko'rsatgan, qancha odamga yaxshilik qilgan-ku...

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolani tayyorlashda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni "Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston" kitobida, 2023-yil 11-dekabr kuni "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida jadidlarning ibrat maktabi haqida bayon etilgan ilg'or g'oyalari o'qib o'rganildi.

Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» ro'moni va unga ilova tariqasida adib Xayriddin Sulton yozgan «Yaldo kechasi» tarixiy ro'moni va 1991-yilda televideniada namoyish etilgan "Moziydan bir sahifa" videofilmi ssenariysi o'qilib, tahlil etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ustoz adib Xayriddin Sultonning «Yaldo kechasi» tarixiy ro'moni ssenariy uchun

asosiy manba bo'lishi mumkin. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» ro'moniga ilova tariqasida adib Xayriddin Sulton yozgan «Yaldo kechasi» tarixiy ro'moni bilan 1991-yilda televideniya namoyish etilib, millionlab muxlislar qalbini larzaga solgan «Moziydan bir sahifa» videofilmi ssenariysi o'rtasida ruhan katta uzviylik sezilib turadi. Videofilmda Abdulla Qodiriy hayotidan ancha-muncha ibratli lavhalar bor. Asarning asosiy qismida buyuk adibga qilingan tuhmatlar, tajovuzlar, hatto bola-chaqasiga qilingan zug'umlar o'z ifodasini topgan. Videofilmda buyuk adib hayotining mudhish va ayanchli onlari, uqubatli damlardagi ruhiy olami g'oyat ishonarli, yorqin bir tarzda ochib berilgan.

Aytish joizki, «O'tkan kunlar» va «Yaldo kechasi» asarlari o'rtasida «Moziydan bir sahifa» ssenariysi bamisoli «oltin ko'pri» vazifasini o'tagandek taassurot qoldiradi. Ana shu asar qahramoni bo'lmish Abdulla Qodiriy qalbida armon bo'lib qolgan gaplar, mavzular «Yaldo kechasi» tarixiy ro'monida o'z aksini topgani bejiz emas. Film yaratishda adibning «Ikkinchi umr», «Ra'no gulining suvi», «Andisha», «Shoirona, darveshona bir ma'no» sarlavhali maqolalaridagi ayrim personajlardan ham unumli foydalansa bo'ladi. Ochig'ini aytganda, Xayriddin Sulton ko'p yillar mobaynida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan kinomahsulotlar yaratish yo'lida ancha-muncha ishlarni amalga oshirgani yaxshi ma'lum. Ayniqsa, «Moziydan bir sahifa» va «Mehrobdan chayon» videofilmlarining ssenariylari o'ziga xosligi bilan millionlab millatdoshlarimizning qalblariga muhranib qoldi. Ana shu tajribalarni umumlashtirgan holda «Yaldo kechasi» tarixiy ro'moni asosida ko'p seriyali videofilm yaratish maqsadga muvofiqdir. Unda asar qahramonlari o'rni kelganda «Abdulla Qodiriy mangu maktabi» dostonidan ham ba'zi satrlarni o'qisalar rosa o'rninga tushardi! Bu ssenariy muallifi va rejessorning ijodiy mahoratiga bog'liq, albatta.

«Yaldo kechasi» tarixiy ro'moni – falsafiy, ma'rifiy asar. O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov ta'бири bilan aytganda, bu asarni muallif Xayriddin Sulton «buyuk Qodiriy nomidan, Qodiriy bo'lib yozdi; qattol zamon Qodiriyning qo'lini kishanlab, unga yozish uchun imkon bermagani bois fozil izdosh va uvays shogird sifatida yozdi. Hech kimning xayoliga kelmagan fantastik bir orzuni ro'yobga chiqardi. Bu asar yangi zamon o'zbek adabiyotida tamomila kashfiyot, desa arzigulikdir...» Film debochasi mana shu satrlar bilan boshlanishi (va shunga yarasha sahna ko'rinishi) bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

«O'tkan kunlar» ro'monida «yuz yil oldingi» davrdan hikoya qilingani bayon etilgan. Undan keyin hozirgacha yana yuz yil, jami – ikki yuz yildan ko'proq vaqt o'tdi. Shu asar asosida suratga olingan filmda tomoshabin o'sha davr manzaralari: ko'hna Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon ko'chalari, imoratlari, bozorlari, odamlarning kiyim-kechagi, yurish-turishlari, ot-aravalari, urf-odatlarini, so'zlashish madaniyati, otabola, qaynona-kelin munosabatlarini maroq bilan kuzatgan bo'lsa, «Yaldo kechasi»da unga nisbatan yaqinroq bir davr ko'z o'ngingizda namoyon bo'laveradi. Ya'ni, asarda yurtimizda sobiq mustabid tuzum davri, jaholatga yuz tutgan siyosati yaqqol aks etgan. O'sha mudhish davrda Otabek, Yodgorbek, Odilbek, Ozodbek, Nusratxon to'ra va boshqa ziyolilar timsolida jadidlarga, ziyolilarga, erkarparvar insonlarga yurtimiz torlik qilib qolganini his etasiz...

Qatag'onning mudhish asorati va o'ta qaltis vaziyat o'sha davr odamlarini qanchalik tahlikaga solib qo'ygani «Yaldo kechasi» tarixiy ro'monida turfa obrazlar misolida yorqin aks ettirilgan. Asarni ishtiyok bilan mutolaa qilar ekansiz, undagi ajib voqealiklar ko'z o'ngingizdan xuddi kinotasmasidek o'taveradi. Masalan, mana bu jummalarni o'qib ko'ring:

«Yodgorbekning o'z uyida «yangi maktab» ochganini eshitkach, avvalan mana shu Chorchinor mahallasidagi aksariyat kishilar unga ola qaray boshladi. Kuni kecha kimsan Mirzakarim qutidorning nabirasi degan nom bilan butun elga tanug'liq bo'lib yurgan badavlat, bekdoda bir yigitning kutilmagun bu ishi nainki chor atrofda g'i maktabdor domlalar, amin va ellikboshilar, choyxonada chilim tortib, «gardkam» deb oshiq otib yotadig'an chapani qimorbozlarning, balki kecha Yodgorbekning soyasiga salom berib o'tadig'an avomning ham tinchini buzg'an edi» (144-bet).

Qarang, asar qahramonining o'z uyida yangi maktab ochgani ortidan shuncha tahlikali mash-masha... Mabodo Yodgorbek maktab emas, mayxona ochganida nima bo'lardi? Albatta, olqish olardi, mahallada undan yaxshi odam bo'lmas edi go'yo... Chunki, maktab – yoshlarni ma'rifatli qilib tarbiyalab, millatni uyg'otadi! Mayxona esa – elni adoyitamom qiladi. O'sha davrning mudhish muhitini vujudga keltirganlar uchun maktab ochgan ziyolilar jamiyat uchun juda «xavfli» hisoblanganlari «Yaldo kechasi»da ko'plab obrazlar orqali teran ochib berilgan. Asarni o'qishda davom etamiz:

«Garchand, mahalla ahlidan birortasi maktabga qadam bosmagan, uni o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa-da, kimlarningdir «xolis xizmati» ila yolg'on-yashiq urchigandan urchib borar edi. Nima emish, bu «kufri uyasi»da bola bo'yra ustida emas, o'risga o'xshab ustalda oyog'ini chalishtirib o'ltirar emish! Qur'on o'rniga Injil yodlar emish! Aytishlariga qarag'anda, qutidorning nabirasi ham aslida cho'qinganlardan ekan, har yakshanba pinhona Iskobilga, nasroniylar cherkoviga borar emish! Musulmon bolalarini dindan chiqarishga qasd qilgan bu bexosiyat dargohda shul sababdan o'qish bepul emish...» (144-145 betlar).

Asarni mutolaa qilish asnosida aynan o'sha ayanchli, mahzun hollar o'z davrida Abdulla Qodiriy ruhiyatida qandoq kechgan bo'lsa, unga uyg'un ravishda bitilgan «Yaldo kechasi» muallifi Xayriddin Sulton qalbini ham birdek o'rtaganini anglash mushkul emas. Faqat, Xayriddin aka ko'proq hayot haqiqatini real aks ettirishga harakat qiladi. Yuksak badiiy mahorat bilan bitilgan «Yaldo kechasi»da har bir qahramonni bor bo'y-basti bilan ko'rish mumkin. Umumiy tarzda esa sobiq mustabid tuzum xalqimiz boshiga nechog'li ayanchli kunlarni solganini yaqqol his etasiz.

Tabiatda yuz beradigan yaldo kechasi qachon va qay tariqa yuz berishini ko'pchilik zamondoshlarimiz unutib yuborgandi. «Yaldo kechasi» asari orqali bu – 21-dekabrda 22-dekabrda o'tar kechasi ekanini ko'pchilik endi bilib oldi. Tuning eng uzun damlarida yuz bergan xunrezlik, ayanchli qismatlar haqida o'qiganingda esa yurak larzaga keladi:

«Yaldo kechasi tun yarmidan oqqanda ularni so'nggi bir safga tizib, tashqariga olib chiqdilar.

Ozodbek girdo-girdiga alanglab, xira yonib turgan iliktir chirog'lari shu'lasida safning bosh tomonida cho'loqlanib arang qadam bosayotgan Begaliyufni, undan besh-olti odim orqada esa ikki nafar soqchi ikki qo'ltig'idan tutqancha sudrab borayotgan Vasilyufni, yana bir to'p tanish odamlarni ko'rdi. Aft-basharasi kaltak zarbi tufayli momataloq bo'lib ketkanidan tanib bo'lmas darajaga yetkan shoir Jo'shqin yon-atrofga ma'nosiz, hissiz boqardi». (457-bet).

Ikki tarixiy ro'monni qiyosiy tahlil etib o'qir ekansiz, bu asarlar qahramonlari bilan ruhan bog'lanib qolasiz. «O'tkan kunlar» qahramonlari Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Oftob oyim, Mirzakarim qutidor, Xushro'ybibi, usta Alim, Saodatlarning avlodlari-yu izdoshlari – «Yaldo kechasi»da Yodgorbek va uning farzandlari – Ozodbek va Odilbek, Zumradbibi, usta Alim, jadid Nusratxon to'ra, Dadaxon muallim, Maqsud ponsad, Haydar Burhon, Oynisa qo'rboshilar bilan ruhan mutolaa kirishasiz. Ularning ayanchli taqdiridan dilingiz zada bo'lsa, kitobning poyoniga

yaqinlashganingiz sari qandaydir judolik hissi tinchlik bermay bo'yadi:

“Jumhuriyat nomi ila hukm o'qilganida ham ul umidini uzmadi.

Ammo egnidagi kulrang shinelining jez tugmalarini bekamu ko'st qadab, besh yulduzli bo'rkini qosh-ko'ziga qadar bostirib olgan, hali yuziga ustara tegmagan yosh askar tamakisini bafurja chekib tugatkach, miltig'ining qo'ndog'ini yelkasiga tirab, nishonga olganida u hammasi tamom bo'lganini angladi.

Askar kiprik qoqmay bexato o'q uzdi.

Miltiqning gumburlagan tovushi barobar Ozodbekning bo'g'zidan so'nggi nido otilib chiqdi:

“Alvido, Turkiston!”

Bitdi”.

Mutolaani bo'g'zingda qandaydir ayanchli nido, ko'zingda shashqator yoshlar bilan tamomlar ekansan, bevaqt xazon bo'lgan jadid bobolarning armonli hayqiriqlari quloqlaring ostida gumburlagandek tuyuladi. Ular tepasida qontalash shafaq ichra Abdulla Qodiriy ruhi yana bir bora gavdalangandek mahzun taassurot qoldiradi. Shunda atoqli adib Pirimqul Qodirovning “Abdulla Qodiriy qahramonligi” sarlavhali badiasidagi quyidagi satrlar yodga tushadi:

“Abdulla Qodiriyning suyuqli qahramoni Otabek mustamlakachilarga qarshi jangga kirib halok bo'lgani ham tasodif emas. Zamon taqozosi bilan adib bu jangning tafsilotlarini tasvirlamaydi. Lekin Otabekning Avliyo ota tomonlarda chor askarlari bilan jang qilgan vatanparvarlarning oldingi safida turib halok bo'lganini o'qir ekanmiz, uning milliy mustaqillik yo'lida jon bergan botirlardan ekanini dil-dildan his qilamiz,— deb yozadi adib.— Otabek siyomosida Abdulla Qodiriy o'z fojiviy o'limini oldindan bashorat qilganday bo'ladi...” Demak, «O'tkan kunlar», «Yaldo kechasi» tarixiy ro'monlarining asosiy g'oyasiga mazkur badia hamohang ekan, bu voqealiklar qanchalik hayotiy ekanini anglash mumkin.

Xulosa. O'zbekiston xalq yozuvchisi, atoqli adib Pirimqul Qodirov bir suhbatida “Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi bo'lsa, yozuvchi Abdulla Qodiriy zamonaviy o'zbek tilining yana bir asoschisidir” deya ta'riflagan edi. Har qanday til gazeta, jurnallarda yoritilgan publisistikalar, badiiy va ilmi-ommabop asarlar, radio, televidenie orqali yangragan gap-so'zlar orqali takomillashib boraveradi. Aynan o'tgan XX-asr boshlarida Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurahmonov Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon kabi jadid bobolarimiz ona tilimizda o'nlab gazeta-jurnallar tashkil etishib, xalqimiz savodxonligi, nutq madaniyatini oshirishga qanchalik ulkan hissa qo'shganlarini izohlashga hojat yo'q. Jadidlarning eng oldingi safida turgan betakror adib Abdulla Qodiriy har kuni turli nashrlarda yoritilayotgan publisistikalari, katta-kichik asarlari orqali zamonaviy o'zbek tili rivojini qanchalik yuksaklarga ko'targani baayni haqiqat. «O'tkan kunlar» ro'monidagi kabi «Yaldo kechasi» asarining tili va uslubi ham ana shunday ohangraboligi, jozibadorligi, xalqonaligi bilan o'quvchi qalbiga naqshlanib qoladi.

“Yaldo kechasi” tarixiy ro'moni – “O'tkan kunlar”ga ilova sifatida taqdim etilgan. Tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to'qima asnosida yaratilgan tarixiy ro'mon buyuk adib Abdulla Qodiriy qalb kechinmalariga payvasta ekanligi sezilib turibdi. Zero, kitobda Otabek, Yodgor va uning ikki o'g'li timsolida Turkiston va turkistonliklarning mustamlakachilik siyosatidan chekkan azob-uqubatlari, Yaldo kechasiday uzoq davom etgan qirg'inbarotlar haqida so'z boradi.

“Bu kitob aslida yuz-yuz ellik yillar muqaddam yozilgan edi. Uni millatning vijdoni pok, iymoni butun farzandlari ajdaho komida turib, yurak qoni bilan bitib ketgan edilar,— deb yozadi muallif Xayriddin Sulton.— Faqat bu asar yaxlit bir holga keltirilmagan, ming-minglab sarg'aygan varaqlar uzra xazon yaproqlari kabi sochilib yotar edi”.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston. –T.: O'zbekiston, 2008. – 512 b.
2. Mirziyoev Sh.M. “Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi, O'zA, 2023 y. 11 dekabr.
3. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. O'zbeklar turmishidan tarixiy ro'mon. –T.: Iqro-nashr, 2024. – 576 b.
4. Xayriddin Sulton. “Yaldo kechasi” tarixiy ro'mon. –T.: Xaybar-25, 2025. – 464 b.
5. Pirimqul Qodirov. Qalb ko'zlari. Badialar, o'ylar, esdaliklar. –T.: Ma'naviyat, 2001. – 116 b.
6. To'lqin Eshbek. Jadidlar javhari. Dostonlar, she'rlar, dil bitiklari. –T.: Dunyo nashr, 2025. – 226 b.
7. To'lqin Eshbek. Vatan, millat xalq madhi. Qasidalar, she'rlar. –T.: Dunyo nashr, 2026. – 416 b.